

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK TADQIQOTLAR  
INSTITUTI**

**ERGASHEV MIRJON YORQIN O‘G‘LI**

**HUDUDLARNING TASHQI SAVDO JARAYONLARINI STATISTIK  
TADQIQ ETISH  
(BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
in Economic Sciences**

**Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li**

Hududlarning tashqi savdo jarayonlarini statistik tadqiq etish (Buxoro viloyati misolida) ..... 3

**Эргашев Миржон Ёркин угли**

Статистические исследования внешнеторговых процессов регионов (на примере Бухарской области) ..... 27

**Ergashev Mirjon Yorkin ugli**

Statistical study of foreign trade processes of regions (an evidence of Bukhara region) ..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK TADQIQOTLAR  
INSTITUTI**

**ERGASHEV MIRJON YORQIN O'G'LI**

**HUDUDLARNING TASHQI SAVDO JARAYONLARINI STATISTIK  
TADQIQ ETISH  
(BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2PhD/Iqt2946 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Begalov Baxodir Abdusalomovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar :** **Maxmudov Nosir Maxmudovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Jalilov Bahrom Sotiboldiyevich**  
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.23.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdu@tdiu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan) tanishish mumkin. Manzil 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2026-yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**B.E. Mamaraximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyoti sharoitida mamlakat hududlarining tashqi savdo jarayonlarini statistik tadqiq etish eksport-import oqimlarining hududiy manzarasini aniqlash, raqobat ustunliklarini belgilash va tashqi iqtisodiy siyosatni tarmoqlar hamda hududlar kesimida differentsiatsiyalash imkonini berish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar orqali hududlar eksport tarkibiy tuzilishi, importga bo'lgan bog'liqligi, tashqi savdo balansi va qo'shilgan qiymat zanjiridagi o'rni statistik ko'rsatkichlar, korrelyatsion-regression modellar hamda panel ma'lumotlar tahlili asosida baholanib, hududiy diversifikatsiya va chuqur qayta ishlash darajasi bo'yicha amaliy xulosalar chiqariladi. Dunyo mamlakatlari bugungi kunda xalqaro savdoda aktiv faoliyat olib borishga intilmoqda. Jumladan, BMTning 2025-yilda e'lon qilingan ma'lumotlariga asosan, "2024-yilda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tashqi savdo jarayonlari muhim o'rin tutgan. Unga ko'ra, 2024-yildan Osiyo mamlakatlari eksporti o'rtacha 2,3 %ga ortgan va bu ko'rsatkich umumiy jahon eksportini o'zgarish sur'ati bilan bir xil tendensiyani ifodalamoqda. Eksport hajmining o'sishida Vyetnam (5,9 %) va Gongkong (14,0 %) kabi rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi sezilarli bo'ldi"<sup>1</sup>. Shu bilan birga, hududiy tashqi savdo jarayonlarini statistik modellashtirish hududlar o'rtasidagi integratsiya darajasi, tashqi shoklarga sezgirlik va yoyilib ketuvchi ta'sirlarni baholashga xizmat qiladi. Shu bois, jahon iqtisodiyoti sharoitida mamlakat hududlarining tashqi savdo jarayonlarini statistik tadqiq etishning metodologik asoslari va amaliy natijalarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jahon miqyosida mamlakat hududlarining tashqi savdo jarayonlarini statistik tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar submilliy darajadagi eksport-import oqimlarini o'lchash, hududiy raqobat ustunliklarini aniqlash va hududlar kesimida tashqi iqtisodiy siyosatni asoslashga xizmat qiluvchi alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida izchil rivojlanmoqda. Mazkur tadqiqotlarda, asosan, hududiy tashqi savdo statistikasi bazalarini shakllantirish va takomillashtirish, gravitatsion va panel regressiya modellari orqali hududlar eksport salohiyati va tashqi savdoga ta'sir etuvchi omillarni baholash, tarmoqlararo (input-output) va qiymat zanjiri tahlili orqali hududlar ulushini aniqlash, logistika va infratuzilmaning hududiy savdo hajmlariga ta'sirini baholash hamda hududlar o'rtasidagi yoyiluvchi ta'sirlarni statistik va prostranstven (spatial) ekonometrik modellar asosida o'rganish ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etilmoqda.

O'zbekistonda bugungi kunda mintaqalarning iqtisodiy mustaqillik masalalariga, ayniqsa, tashqi savdo faoliyatiga alohida e'tibor berilayotganligi sababli mintaqalar eksporti hamda importi samaradorlik darajalarini statistik baholashga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda tashqi savdo faoliyatini takomillashtirish maqsadida jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish ustida jiddiy ishlar olib borilmoqda. Shunga ko'ra ko'pgina me'yoriy-huquqiy hujjatlarda, xususan,

---

<sup>1</sup> BMT Savdo va rivojlanish tashkiloti – The International Trading System and Trade Negotiations | 2023-2024.

taraqqiyot strategiyasida “jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a‘zo bo‘lish, yiliga kamida 10 ta xorijiy davlat bilan jahon bozoriga kirish muzokaralarini yakunlash, milliy qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini jahon savdo tashkilotining qoida, me‘yor va bitimlariga moslashtirish; jahon savdo tashkilotiga a‘zo davlatlar bilan bozorlarga kirish bo‘yicha muzokaralarni tizimli olib borish va a‘zo bo‘lish jarayonini samarali yakuniga yetkazish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgani ham muammoni ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu vazifalarning samarali ijrosi respublikada mintaqalar iqtisodiyoti innovatsion rivojlanishi ularning tashqi savdo faoliyatini alohida statistik baholashni talab etadi. Mintaqalar salohiyatidan kelib chiqib, statistik tadqiqotlar olib borish hamda eksport, import va chet el investitsiyalari hajmini oshiradigan tizim yaratilishi lozim hamda hududlar iqtisodiyotini statistik baholash tizimini ishlab chiqish kabi vazifalar mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi. Qolaversa, Yangi O‘zbekistonni qurishda tashqi savdo faoliyatiga jiddiy e‘tibor berilmoqda. Taraqqiyot strategiyasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi eksport hajmini 45 mlrd dollarga yetkazish va eksport tarkibidagi tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni 3,3 barobarga oshirish belgilab qo‘yilgan<sup>2</sup>. Bu maqsad yo‘lida hududlarni eksport salohiyatlarini aniqlash va hududlarni mamlakat eksport hajmiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan tovar va xizmatlar tarkibini statistik tadqiq qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-martdagi PF-47-son “Mahsulotlarni eksport qilish tartib-taomillarini takomillashtirish va qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 21-oktyabrdagi PF-6091-son “Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 22-avgustdagi PF-4812-son “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 18-avgustdagi PF-6042-son “Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024-yil 3-apreldagi PQ-146-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtiruvchi, ishlab chiqaruvchi va ularni eksport qiluvchi tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tashqi savdo va uni statistik tahlil

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ““O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi 2023-yil 28-yanvardagi PF-158-sonli Farmoni.

qilish yo‘nalishlari bo‘yicha dunyoning yetakchi iqtisodchi olimlari va soha mutaxassislari faoliyat olib borganlar. Jumladan, jahon olimlaridan J.N. Grossman, YE.F. Avdokush, K.K. Reddi, E. Fuji, S. Yuksel, S. Zengin, M. Mabrouki S. Bakari, M. Maruf, A.B. Hasan, H.P. Bovenlar tashqi savdo nazariyasi va tashqi savdoni iqtisodiy-statistik tahlili, tashqi savdoni prognozlash bo‘yicha turli ekonometrik modellar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan L.Y. Lugova, O.N. Kirichenko, E.G. Popkova, Y.A. Suxodolov, Z.R. Rizvanova, B.A. Rayzberg, L.Sh. Lozovskiy, Ye.B. Starodubseva, V.I. Borodulin, A.P. Gorkin, V.M. Karev, A.M. Proxorov, G.G. Myagkova, G.G. Konovalovalar o‘zlarining ilmiy izlanishlarini olib borganlar.

O‘zbekistonda statistika, jumladan, tashqi savdo statistikasini rivojlantirishda o‘zining olib borgan tadqiqotlari bilan katta hissasini qo‘shgan iqtisodchi olimlar sifatida S.S. G‘ulomov, N.M. Maxmudov, Y. Abdullayev, B.A. Begalov, Z. Tashmatov, E. Nabiyev, N.M. Soatov, O.Sh. Dadabayev, S.S. Soatov, A.M. Sagitov, E.I. Yuldashev, M. Mirsaidov X.D. Xujakulov, G‘.H. Nabiyevlarni keltirishimiz mumkin va ular ilmiy izlanishlari pirovardida qator natijalarga erishganlar<sup>3</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

---

<sup>3</sup> Grossman, J.N. (1999) The Meteoritical Bulletin, No. 83. Meteoritics and Planetary Science, 34, A169-A186. Avdokush E.F. International economic relations: Textbook. M.: 2001. — 368p. Avdokush E.F. International economic relations: Textbook. M.: 2001. — 368p. Reddy K.K. – (2020). Exports, imports and economic growth in India: An empirical analysis. Theoretical and Applied Economics, 27(4): 330b. Fuji E. What does trade openness measure? Oxford Bulletin of Economics and Statistics, 81(4), (2019).888b. Yuksel S., Zengin S., (2016) – Causality relationship between import, export and growth rate in developing countries. Bakari S., Mabrouki, M. (2017). Impact of exports and imports on economic growth: new evidence from Panama. Journal of Smart Economic Growth, 2(1). Maruf M., Hasan A.B. The role of foreign trade and technology innovation on economic recovery in China: The mediating role of natural resources development. Boven, H.P., Hollander, A., Viaene, J-M. Applied International Trade Analysis, B, Macmillan. 1998. Люгова Л.Й. Статистическое исследование внешней торговли экспорториентированного региона 2018. Криченко О.Н., кандидат экономических наук, доцент кафедры менеджмента внешнеэкономической деятельности, Национальный университет пищевых технологий «НУПТ», Киев (Украина). Внешняя торговля как фактор экономического роста. 2014 года. Elena G. Popkova, Yakov A. Sukhodolov. Foreign trade as a factor of economic growth: Russian-Chinese foreign trade cooperation. Cham: Springer, cop. 2017. - VIII, 138 с.: цв. ил., табл.; 24 см. - (Contributions to economics, ISSN 1431-1933).; ISBN 978-3-319-45985-1ю. Ризванова З.Р. – «Статистический анализ товарной структуры внешнеторгового оборота: на примере Российской Федерации и стран Скандинавии», ВАК РФ 08.00.12 Бухгалтерский учет, статистика. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубсева Й.Б. Современный экономический словарь. – М.: ИНФРА-М, 2007. –495 с. Бородулин Б.И., Горкин А.П., Карев В.М., Прохоров А.М. Российский энциклопедический словарь: РЕС: в 2 кн./ Гл. ред., редкол. – М.: Большая Рос. энцикл., 2001. Мягкова Г.Г. Статистика внешнеэкономических связей (электронное пособие). www.abc.vvcsu.ru. Коновалова Г.Г. Статистика внешней торговли: учеб. пособие. Ярославль: ЯрГУ, 2006. С. 62–64. S.S.G‘ulomov, N.M. Maxmudov. Vuxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbollari. Monografiya, “Iqtisodchi” 9 b.t. 2010. Abdullayev Y. Statistika nazariyasi. Darslik. Toshkent. TDIU, 2002, - 592b. Begalov B. A., Мамадалиев О. Т., Реформы в сфере статистики Республики Узбекистан: результаты и перспективы развития “Статистика и экономика” 2021. Soatov N.M., Nabiyev X., Ayubjonov A.H. Statistika, darslik, 2019, TDIU. Dadabayev O.Sh., Soatov S.S., Sagitov A.M. Bojxona statistikasi va tizimli yahlil, 2021. Yuldashev E.I. “O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdoning rivojlanish jarayonlarining iqtisodiy-statistik tahlili. Mirsaidov M. Xalqaro-iqtisodiy-munosabatlar. O‘quv qo‘llanmasi. www.sies.uz. Xujakulov X. Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha statistik tahlili. Nabiyev X.G‘. Investitsiya muhitini statistik baholash usullari. TDIU 2020. 94b.

**Tadqiqotning maqsadi** Buxoro viloyatida tashqi savdoning rivojlanib borish jarayonlarini ilmiy asoslash va iqtisodiy-statistik tahlil qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tashqi savdo jarayonlarini statistik kuzatish va uning nazariy asoslarini tadqiq etish;

tashqi savdo faoliyatining me'yoriy-huquqiy holati va uni statistik baholashda axborot ta'minotining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

tashqi savdoni statistik tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy qonuniyatlar, jahonda statistik axborotlarni olish usullari, ularni to'plash uslubiyatini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo faoliyati holati va uni statistik baholashda axborot ta'minotining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

tashqi savdoni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni statistik baholovchi ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish;

Buxoro viloyati eksport salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlarini o'rganish va bu bo'yicha ilmiy takliflar berish;

hududlarda tashqi savdoni rivojlanish holati va asosiy tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish va maqbul modellardan foydalanish;

Buxoro viloyatida tashqi savdoning rivojlanish jarayonlarini ilmiy asoslangan holda tashkil qilishda iqtisodiy statistik modellar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Buxoro viloyatida tashqi savdoni istiqboldagi rivojlanishini statistik prognozlash va uning natijalariga ko'ra tashqi savdoni yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib Buxoro viloyati tashqi savdo operatsiyalari majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** hududlarni tashqi savdo jarayonlarini tavsiflovchi omillarni statistik o'rganish hamda baholashga oid ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida statistik kuzatish, guruhlash usullari, mutloq, nisbiy va o'rtacha miqdorlar, grafik, korrelyatsion va regression tahlil, taqqoslama tahlil, nazariy va amaliy o'rganish, matematik-statistika va ekonometrika usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

hudud kesimida eksport-import ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, validatsiya qilish, yillar kesimida hududiy tashqi savdo samaradorligi indeksini hisoblash jarayonlari samaradorligini hududiy boshqarmalar tarkibida "Hududiy tashqi savdo statistikasi va tahlil markazi"ni tashkil etish orqali ta'minlash taklifi asoslangan;

hududiy iqtisodiy rivojlanib borishga jiddiy ta'sir etuvchi eksport va import hamda uning tarkibini belgilab beruvchi tashqi iqtisodiy faoliyatga yo'naltirilgan tovar va xizmatlarning ixtisoslashuv indekslar usulini ishlab chiqish asosida hududlarning tashqi savdo jarayonlarini statistik tadqiq etish takomillashtirilgan;

tumanlar eksport va import hajmlarining viloyat tashqi savdo ko'rsatkichlariga ta'sirini kompleks statistik yondashuv asosida tadqiq etish hamda ularning qo'shgan

hissalaridan kelib chiqib tumanlar ta'sir darajasini "qizil" (qoniqarli), "sariq" (o'rta) va "yashil" (yuqori) toifalariga ajratish taklifi asoslangan;

Buxoro viloyati eksporti va importi tarkibidagi tovar va xizmatlarning tashqi savdo ko'rsatkichlarga ahamiyatli ta'sirini ifodalovchi ekonometrik modellar asosida viloyat tashqi savdo aylanmasining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

hududlarning tashqi savdo salohiyatini obyektiv hamda shaffof baholash maqsadida har bir hududda "Hududiy tashqi savdo statistikasi va tahlil markazi"ni tashkil qilish taklifi ishlab chiqilgan;

viloyat va tumanlar kesimida eksport-import jarayonlarining ixtisoslashuv ko'rsatkichlari bo'yicha baholash usuli taklif etilgan va ularning tashqi savdo faoliyatidagi o'rni aniqlab berilgan;

Buxoro viloyati tumanlarining eksport va import hajmlarining umumiy tashqi savdo natijalariga ta'siri Boks-Jenkins modeli asosida tahlil qilinib, ta'sir darajasiga ko'ra hududlar guruhlariga ajratilgan;

Buxoro viloyatida tashqi savdoning rivojlanish tendensiyalari ARIMA modeli yordamida prognoz qilinib, tashqi iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** foydalanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, manfaatdor vazirlik va idoralarning iqtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalariga oid materiallari tadqiqotning empirik bazasi va ma'lumotlari manbai sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot ishi natijasida olingan va ilgari surilgan nazariy yondashuvlar, ilmiy takliflardan tashqi savdo jarayonlarini statistik kuzatish va uning nazariy asoslarini takomillashtirish, tashqi savdoni statistik tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy qonuniyatlarni o'rganish, tashqi savdoni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni statistik baholovchi ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot ishi natijasida olingan va ilgari surilgan amaliy takliflar va tavsiyalardan Buxoro viloyatida tashqi savdo rivojlanish jarayonlarini iqtisodiy-statistik tahlilini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Buxoro viloyatida tashqi savdoning rivojlanib borish jarayonlarini ilmiy asoslash va iqtisodiy-statistik tahlil qilish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

hudud kesimida eksport-import ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, validatsiya qilish, yillar kesimida hududiy tashqi savdo samaradorligi indeksini hisoblash jarayonlari samaradorligini hududiy boshqarmalar tarkibida "Hududiy tashqi savdo statistikasi va tahlil markazi"ni tashkil etish orqali ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 22-avgustdagi 03-77-1-00900-sonli, O'zbekiston savdo-

sanoat palatasining 2025-yil 29-iyuldagi 06-19-8347-sonli, Buxoro viloyati investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasining 2025-yil 30-maydagi 04-7-447-sonli va 04-7-448-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududiy tashqi savdo samaradorligi indeksini hisoblash jarayonlari samaradorligini ta'minlash imkoni yaratilgan;

hududiy iqtisodiy rivojlanib borishga jiddiy ta'sir etuvchi eksport va import hamda uning tarkibini belgilab beruvchi tashqi iqtisodiy faoliyatga yo'naltirilgan tovar va xizmatlarning ixtisoslashuv indekslar usulini ishlab chiqish asosida hududlarning tashqi savdo jarayonlarini statistik tadqiq etishni takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 22-avgustdagi 03-77-1-00900-sonli, O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 29-iyuldagi 06-19-8347-sonli, Buxoro viloyati investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasining 2025-yil 30-maydagi 04-7-447-sonli va 04-7-448-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tashqi iqtisodiy faoliyatga yo'naltirilgan tovar va xizmatlarning ixtisoslashuv indekslar usuli orqali hududlarning tashqi savdo jarayonlarini statistik tadqiq etishni takomillashtirish imkoni yaratilgan;

tumanlar eksport va import hajmlarining viloyat tashqi savdo ko'rsatkichlariga ta'sirini kompleks statistik yondashuv asosida tadqiq etish hamda ularning qo'shgan hissalaridan kelib chiqib tumanlar ta'sir darajasini "qizil" (qoniqarli), "sariq" (o'rta) va "yashil" (yuqori) toifalariga ajratish taklifi O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 22-avgustdagi 03-77-1-00900-sonli, O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 29-iyuldagi 06-19-8347-sonli, Buxoro viloyati investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasining 2025-yil 30-maydagi 04-7-447-sonli va 04-7-448-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tumanlar eksport va import hajmlarining viloyat tashqi savdo ko'rsatkichlariga ta'sirini kompleks statistik yondashuv asosida tadqiq etish imkoni yaratilgan;

Buxoro viloyati eksporti va importi tarkibidagi tovar va xizmatlarning tashqi savdo ko'rsatkichlarga ahamiyatli ta'sirini ifodalovchi ekonometrik modellar asosida viloyat tashqi savdo aylanmasining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 22-avgustdagi 03-77-1-00900-sonli, O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 29-iyuldagi 06-19-8347-sonli, Buxoro viloyati investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasining 2025-yil 30-maydagi 04-7-447-sonli va 04-7-448-sonli ma'lumotnomalar). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Buxoro viloyat tashqi savdo aylanmasining istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAK e'tirof etgan mahalliy jurnallarda 3 ta, xalqaro nufuzli jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma'ruza va tezislarni nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 146 betdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Hududlarning tashqi savdo jarayonlarini statistik tadqiq etishning nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tashqi savdo faoliyatining asosiy tushunchalari, mazmuni hamda tashqi savdo faoliyatini tashkil qilish masalalari yoritilib, tashqi savdo faoliyatini tashkil qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar tizimi, tamoyillari, me'yoriy-huquqiy asoslar o'rganilgan hamda xalqaro tajribalar yoritilgan.

Dunyo bo'ylab yuqori darajadagi raqamli integratsiya jarayonlarining davomli shakllanayotganligi mamlakatlarning jahon bozoriga bo'lgan ehtiyoji yanada ortishiga olib keldi. Barcha tovar va xizmatlar sohasidagi raqamlashuv jarayonlari, o'z-o'zidan mamlakatlarni jahon bozoriga bo'lgan zaruriyatini oshirmoqda. Dunyo hamjamiyatida sun'iy intellektni rivojlanishi oqibatida xalqaro bozorlarda yangidan yangi iqtisodiy munosabatlar vujudga kelmoqda. Shu bois ham tashqi savdo jarayonlarini kengroq o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda.

Mamlakatlararo savdo aloqalarining takomillashuvi dunyo bo'ylab kambag'allik darajasini pasaytirishga yordam beradi. Masalan, biz misol tariqasida firma yoki shaxsni oladigan bo'lsak, uning ancha arzon joydan xizmat yoki mahsulotni olishi ikkala tomonning ham yashash sharoitlarini yaxshilanishiga olib keladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasida asosan tashqi savdo faoliyatining quyidagi ko'rsatkichlar va ularning boshqa ko'rsatkichlarga bog'liqligi, ta'siri va ulushlari sifat va miqdor jihatdan o'rganiladi:

- a) mamlakat eksporti, importi, tashqi savdo aylanmasi;
- b) boshqa mamlakatlarning tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari.

Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi usuli har qanday iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ketma-ket uchta bosqichga asoslangan holda statistik tadqiq qiladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar statistik tadqiqotining bosqichlari:

- a) ommaviy statistik kuzatish, ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyatni tavsiflovchi birlamchi ma'lumotlarni to'plash;

b) tashqi iqtisodiy faoliyatning turli sohalarini tavsiflovchi statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlash;

c) umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni iqtisodiy va statistik tahlil qilish.

Dunyo mintaqalari bo'yicha eng yaxshi savdo ko'rsatkichlar Osiyoga tegishli. Oxirgi 10 yillikda xalqaro savdoning 40 %i Osiyo mamlakatlari tomonidan amalga oshirilgan. 37 %lik ko'rsatkich bilan Yevropa mamlakatlari ikkinchi o'rinda turibdi. Amerika mintaqasidagi davlatlar tashqi savdosi jahon tashqi savdo aylanmasining o'rtacha 18-19 %ini tashkil qilib kelgan (1-jadval).

### 1-jadval

#### Dunyo tashqi savdo aylanmasida qit'alar ulushi, (%da)<sup>4</sup>

Mintaqa nomi	2020	2021	2022	2023	2024
Dunyo	100	100	100	100	100
Afrika	2,81	2,49	2,62	2,78	2,69
Amerika	18,94	18,34	18,22	18,92	19,12
Osiyo	39,44	40,16	40,90	40,34	39,75
Yevropa	37,23	37,42	36,62	36,26	36,82
Okeaniya	1,58	1,59	1,63	1,70	1,63

Tashqi savdo tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanib, tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi ham statistikani asosiy qismlaridan biridir. Tashqi iqtisodiy faoliyatning 4 ta yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
- 2) tashqi savdo faoliyati;
- 3) chet el investitsiyalarini jalb qilish;
- 4) O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati.

Respublikamizda tashqi savdo statistikasi hisobini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi yuritadi. Tashqi savdo statistikasini shakllantirish tovarlar va xizmatlar guruhi bo'yicha shakllantiriladi. Shunga ko'ra Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tashqi savdoni tashkil etish bo'yicha ikki xil uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan<sup>5</sup>:

tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish uslubiy qo'llanmasi;  
xizmatlar tashqi savdosi statistik hisobini tashkil qilish bo'yicha uslubiy qo'llanma.

Ko'plab davlatlar kabi mamlakatimizning ham tashqi savdo statistikasini tashkil etish va yuritish metodologiyasi bir necha bor o'zgardi. Ushbu o'zgarishlarga quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatdi:

tashqi savdoni amalga oshirish shartlarining o'zgarishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiy hayotidagi roli va ahamiyati;

<sup>4</sup> Unstats.un.org – BMT Savdo va rivojlanish tashkilotining statistik ko'rsatkichlari asosida tayyorlangan.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2024-yil 24-may 110-son qarori – Tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish uslubiy qo'llanmasi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2022-yil 28-yanvardagi 7-son qarori – Xizmatlar tashqi savdosi statistik hisobini tashkil qilish bo'yicha uslubiy nizom.

tashqi iqtisodiy aloqalarning tashkiliy shakllari evolyutsiyasi;  
 xalq xo‘jalik hisobining shakl va usullarini takomillashtirish;  
 xalqaro tashkilotlarning statistika sohasidagi faoliyati va mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokining kuchayishi.

Har qanday iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o‘rganish va tahlil qilishda statistik ko‘rsatkichlar tizimi muhim rol o‘ynaydi, shu jumladan, tashqi savdo jarayonlarini tadqiq etishda ham tashqi savdo faoliyatini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Puxta rejalashtirilgan strategiyalar uchun, albatta, shaffof statistik ko‘rsatkichlarga chuqur ehtiyoj seziladi.

Tadqiqotlarimizga ko‘ra, mamlakatimiz eksport tarkibida 2024-yilda xizmatlar ulushi 8,03 %, import tarkibida esa 5,09 %ni tashkil qilgan. Olib borgan tadqiqotlarimizga ko‘ra hududlarda xizmatlar tashqi savdosini xolis baholash maqsadida “Hududiy tashqi savdo statistikasi va tahlil markazi”ni tashkil etish ehtiyoji mavjudligi aniqlandi.

## 2-jadval

### O‘zbekiston Respublikasi eksport va import tarkibining tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, (%da)<sup>6</sup>

Asosiy ko‘rsatkichlar	Eksport					Import				
	2020	2021	2022	2023	2024	2020	2021	2022	2023	2024
Jami:	40,8	41,8	41,7	39,5	38,5	59,2	58,2	58,3	60,5	61,5
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,24	3,44	3,69	3,25	3,26	3,35	3,85	5,11	5,95	6,78
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	6,26	6,06	1,82	2,17	2,43	2,75	2,25	3,05	3,69	3,59
Kimyoviy vositalar va boshqa toifaga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	1,5	2,00	2,26	2,68	2,60	7,44	6,44	7,95	8,65	8,45
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	6,00	6,59	8,02	10,28	8,76	10,4	9,94	9,88	11,20	11,52
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1,29	1,01	1,20	1,64	1,94	20,9	22,9	21,9	19,57	19,35
Xizmatlar	8,03	8,23	5,53	6,12	8,03	7,81	5,81	3,37	4,19	5,09

So‘nggi yillarda mamlakatimiz eksporti tarkibida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi eng katta ulushni tashkil qilgan bo‘lsa,

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi (stat.uz).

import tarkibida esa mashinalar va transport asbob-uskunalari yetakchi hisoblanadi.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hajmi so'nggi 5 yil davomida mamlakatimiz eksporti tarkibida o'rtacha 3,5 %ni tashkil qilgan bo'lsa, importi tarkibida esa 3,35 %dan 6,78 %ga yetgan.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, eksport tarkibida eng katta ulush sanoat mahsulotlari bo'lsa (o'rtacha 8 %), import tarkibida esa mashina va asbob-uskunalari (o'rtacha 21 %)ni tashkil qilgan (2-jadval).

Yurtimizni rivojlantirishga qaratilgan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da tashqi savdoni rivojlantirishga katta urg'u berilgan. Unga ko'ra, strategiyaning 28-maqsadida "Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 mlrd dollarga yetkazish" belgilangan.

Mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, savdo tendensiyasi doimiy o'sish zaruriyatiga ega. Savdo jarayonlaridagi muammolar oziq-ovqat xavfsizligi, ijtimoiy himoya hamda iqlimga moslashish kabi muhim ehtiyojlarni ko'payishiga olib keladi. Bundan tashqari sog'liqni saqlash sohalarida bir qancha muammolarni vujudga keltiradi. Bugungi kunda ham dunyo mamlakatlarida savdo jarayonlaridagi notekislik xuddi shu kabi muammolar bilan ko'plab mamlakatlarni yuz tutishga majbur qildi.

Dunyo tajribasi o'laroq, mamlakatimizda savdo jarayonlarini rivojlantirishning ko'p tomonlama choralari va muvofiqlashtirish mexanizmlarini shakllantirish zaruriyatini yuzaga chiqarmoqda. Bu orqali zaif iqtisodiy nuqtalarni rivojlantirish hamda turli xil zarbalarning turli inqirozlardan mamlakatimiz va uning hududlarini himoyalash imkoniyatiga erishiladi. Shu asnoda, tadqiqotlarimiz asosida quyidagi xulosa va tavsiyalarni berib o'tamiz:

hududlarda savdo jarayonlarini rivojlantirish uchun mutloq hamda nisbiy ustun sohalarga ixtisoslashtirishni rag'batlantirish tizimini shakllantirish;

savdo hajmini oshirish natijasida hududlar kesimida daromadlar tengsizligini yumshatish;

rivojlanayotgan iqtisodiy sohalarda qarzdorlikning moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish.

Tadqiqotlarimiz tavsiyalariga tayanilsa, mamlakat hududlarida aholi daromadlari notekisligi hududlarning savdo jarayonlarini takomillashtirish orqali yumshatish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Dissertatsiyaning "**O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo faoliyati tarkibini statistik baholash**" deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimiz tashqi savdo faoliyatida tendensiyalarning statistik tadqiqi amalga oshirilgan. Tashqi savdo faoliyati tarkibini baholashda ishlatiladigan statistik usullar hamda statistik ko'rsatkichlar tizimi bayon etilgan. Buxoro viloyati hamda tuman va shaharlarning tashqi savdo jarayonlarini statistik tadqiqoti amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tashqi savdoning ortib borayotgan roli ko'plab mamlakatlardagi singari mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishidagi umumiy tendensiyasiga mos keladi. Shu munosabatda, tashqi savdo faoliyatini tashkil qilishdan bir qancha muhim jihatlar mavjud, ya'ni:

hozirgi vaqtda savdo ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida

muhim dastak hisoblanadi. Bunda mamlakatlar savdo orqali ma'lum kategoriyadagi tovar va xizmatlarda mutloq va qiyosiy ustunlikka ega bo'lishadi. Natijada, tejalgan resurslarni turli sohalarga yo'naltirish imkoniyati yaratiladi;

tashqi savdo faoliyatini globallasuvi barcha daromadli va rivojlanish darajasidagi mamlakatlar uchun ishlab chiqarish, iste'mol va bandlik ulushlarining ortib borishini import, eksport va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatmoqda. So'nggi yillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatlarning savdo muzokaralari soni va ko'lami sezilarli o'sishni qayd etgani aholi faravonlik darajasini oshishiga xizmat qilmoqda<sup>7</sup>.

Bizning fikrimizcha, hozirgi bosqichda tashqi savdoni, xususan, O'zbekiston Respublikasining ta'sis subyektlarini tahlil qilish faqat an'anaviy uslublarda amalga oshirilmoqda. Eksportning tovar tarkibini atroflicha o'rganishga, shuningdek, hududda tashqi savdo rivojlanishini belgilovchi omillarni tahlil qilishga ham tegishli e'tibor qaratilmayapti. Eksportga yo'naltirilgan mintaqa eksportini tahlil qilishda statistik usullaridan foydalanish mamlakatimiz tashqi savdosini yaxshilashning asosiy omillari va yo'llarini aniqlash imkonini beradi. Eksportga yo'naltirilgan subyektning tashqi savdo faoliyatini kompleks o'rganishni takomillashtirish quyidagi jihatlarda ko'rinadi:

1) hudud tashqi savdosining umumiy tahlili, bunda subyektning mamlakat tashqi savdosiga jalb qilinganlik darajasiga ko'ra tashqi savdosining tavsifi, ya'ni: subyekt tashqi savdosining asosiy ko'rsatkichlarini dinamik va geografik tahlili;

2) mamlakatning ta'sis subyekti eksportining tarkibiy tahlili, shu jumladan, asosiy tovarlar eksportining tannarxi va fizik ko'rsatkichlarini o'rganish, multiplikativ-qo'shimcha modellardan keng foydalanish va eksport tuzilmasini chuqur o'rganish;

3) subyektning tashqi savdo faoliyatini modellashtirish.

Tashqi savdo holati va rivojlanishini, jahon bozoridagi o'rnini har tomonlama baholash uchun beshta blokka birlashtirilgan o'zaro bog'langan statistik ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi, ya'ni:

birinchi blokda tashqi savdo qiymatining ko'rsatkichlari mavjud. Tovar va xizmatlarning tashqi savdosi ikkita qarama-qarshi eksport va import oqimidan iborat;

ikkinchi blokda xizmatlarning eksport-import oqimlarining tur tarkibi va geografik yo'nalishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar mavjud;

uchinchi blok tashqi savdoning muvozanatli ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi;

to'rtinchi blok dinamika intensivligining an'anaviy statistik ko'rsatkichlarini birlashtiradi – indekslar, mutlaq o'sishlar va o'sish sur'atlari (pasayishi), ular xizmatlar savdosi ko'lami, tuzilmasi va balansi o'zgarishining mutlaq va nisbiy tezligini tavsiflaydi;

beshinchi blok mamlakat tashqi savdosi darajasini va xalqaro savdodagi faollik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni birlashtiradi.

Nisbiy taqqoslash ko'rsatkichlari esa o'rganilayotgan bir hodisani boshqa bir

---

<sup>7</sup> BMT Savdo va rivojlanish tashkiloti – System of National Accounts / United Nations Statistics Division, 2024. par.6.7, 6.15.

hodisaning o‘xshash ko‘rsatkichlari, ham bir xil, ham turli hodisalar bilan tavsiflash uchun hisoblanadi. Bunday ko‘rsatkichlarga:

tashqi savdo aylanmasining elastiklik koeffitsiyenti;

eksport kvotalar;

import kvotalari;

savdoning fizik sharoitlari koeffitsiyenti kiradi.

Bizning fikrimizcha, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni statistik tadqiq etishda, agar obyekt mamlakat miqyosida bo‘lsa, YaIM ko‘rsatkichlariga nisbatan taqqoslash orqali foydalaniladi. Hudud miqyosida esa YaHM (yalpi hududiy mahsulot) va YaIM asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Regressiya grafigidan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz eksporti bilan yalpi ichki mahsulot o‘rtasidagi bog‘lanish zichligi kuchli. Tahlilimiz asosida cheddok shkalasi orqali O‘zbekiston eksporti va uning yalpi ichki mahsuloti o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblab chiqdik (3-jadval).

**3-jadval**

**Korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymatlari<sup>8</sup>**

	O‘zbekiston Respublikasi YaIM	O‘zbekiston Respublikasi eksporti	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi
O‘zbekiston Respublikasi YaIM	1,0000		
O‘zbekiston Respublikasi eksporti	0,8278	1,0000	
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	0,9156	0,7565	1,0000


Tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi eksporti va yalpi ichki mahsuloti o‘rasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,8278 ga teng. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, amalga oshirilayotgan eksport hajmlari yalpi ichki mahsulotga kuchli ijobiy ta’sir o‘tkazmoqda.

$$\ln y = 29131,03 + 0,294 \ln x_1 + 0,319 \ln x_2 \quad (1)$$

bu yerda:  $\ln y$  – mamlakatimiz YaIM,  $\ln x_1$  – mamlakatimiz eksporti,  $\ln x_2$  – asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi.

Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatyaptiki, mamlakatimiz eksportini 1 %ga ortishi, mamlakatimiz YaIMini 0,294 %ga ortishiga olib keladi. Mamlakatimiz asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1 %ga ortishi, mamlakatimiz YaIMini 0,319 %ga ortishiga olib keladi. Modelimizning har bir parametri statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, parametrlarning t-statistika qiymatlari jadval qiymatidan katta. Bundan tashqari modelimiz uchun fisher mezoni 15,4 ga tengligi modelni umumiy ko‘rinishda muhim ahamiyat kasb etishini ifodalaydi.

<sup>8</sup> Muallifning STATA 17.0 statistik amaliy dasturi asosida olgan tadqiqot natijalari.



### 1-rasm. O'zbekiston Respublikasi va Buxoro viloyati eksport ko'rsatkichlari o'zgarish dinamikasi, (mln dollar)<sup>9</sup>

Olib borgan tahlillarimizga ko'ra, Buxoro viloyatini tuman va shaharlar kesimida ham ba'zi hududlarida barqaror o'sib boruvchi eksport faoliyatini olib borgan hududlari kam. Jumladan, Shofirkon, Jondor, Peshku hamda Olot tumanlarida salbiy eksport faoliyatini kuzatishimiz mumkin.

So'nggi 10 yillikda ham Shofirkon, Jondor, Peshku hamda Olot tumanlarida Buxoro viloyati eksportidagi ulushi sezilarli darajada kam ekanligi aniqlandi. Jumladan, Shofirkon tumani Buxoro viloyati eksportining o'rtacha 2,3 %ini amalga oshirib kelgan.

### 4-jadval

#### Buxoro viloyati va uning hududlarini eksport ko'rsatkichlarini o'zgarish dinamikasi, (mln dollarda)<sup>10</sup>

Hududlar nomi	Belgi	Yillar					O'rtacha ulushi %da
		2016	2021	2022	2023	2024	
Buxoro viloyati	y	261,9	312,1	306,5	301,4	296,5	100,0
Buxoro sh.	x <sub>1</sub>	47,1	59,2	66,2	73,1	97,9	20,35
Kogon sh.	x <sub>2</sub>	21,3	23,4	9,3	10,9	5,6	5,4
Olot	x <sub>3</sub>	16	13,2	3,8	8,2	8,7	4,0
Buxoro	x <sub>4</sub>	18,8	7,2	9,9	5,1	5,2	5,3
Vobkent	x <sub>5</sub>	8,1	7,5	16,1	19,1	16,1	3,3
G'ijduvon	x <sub>6</sub>	40,2	70,3	44,2	37,6	39,3	15,3
Kogon	x <sub>7</sub>	6	33,6	31,3	26,1	31,2	10,4
Qorako'l	x <sub>8</sub>	14,8	14,3	28,9	19	11,3	5,7
Qorovulbozor	x <sub>9</sub>	40,9	22,3	59,8	63,1	44,6	13,7
Peshku	x <sub>10</sub>	9,8	21	8	6,7	6,1	3,7
Romitan	x <sub>11</sub>	15,6	15,3	18	21,3	13,9	5,4
Jondor	x <sub>12</sub>	15,2	6,3	5	2,5	3	3,8
Shofirkon	x <sub>13</sub>	5,9	18,5	6	8,8	8	3,5

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Jondor tumanining esa oxirgi 10 yillikda Buxoro viloyati eksportidagi o‘rtacha ulushi 3,5 %ni tashkil qilgan. Peshku va Olot tumanlarida esa har yili o‘rtacha 4 % va undan kam miqdorda Buxoro viloyatining eksporti amalga oshirib kelingan.

Vobkent tumani eksport ulushi o‘rtacha miqdori salbiy, biroq so‘nggi 4 yillikda sezilarli ijobiy o‘shishni ko‘rsatib kelmoqda.

Barqaror eksport faoliyatini amalga oshirib kelayotgan hududlar ham mavjud. Jumladan, Buxoro shahri, G‘ijduvon, Kogon hamda Qorovulbozor tumanlarida barqaror hamda o‘shib boruvchi eksport faoliyatini amalga oshirilganini kuzatishimiz mumkin.

Buxoro viloyati eksport hajmiga viloyatning ma‘muriy hududlarini ta‘sirini baholash orqali hududlarni viloyat eksportidagi ahamiyatini aniqlash mumkin. Bu orqali ma‘muriy hududlarni eksport salohiyatidan qay darajada foydalanilayotgani hamda ularning eksport salohiyati qancha ekanligini aniqlashimiz mumkin. Ilmiy izlanishlarimiz asosida, viloyat eksportiga ta‘sir qiluvchi hududlarni uch toifaga ajratib olishni taklif qilamiz, ya‘ni:

birinchi guruh hududlari qizil hududlar, bunda viloyat eksportiga ta‘sir darajasi 0,5 kichik, ya‘ni ta‘sir doirasi sezilarli past bo‘lgan hududlar;

ikkinchi guruh hududlari sariq hududlar bo‘lib, ta‘sir chegarasi 0,5 dan 0,7 gacha bo‘lgan viloyat eksportiga ta‘sir darajasi o‘rtacha bo‘lgan hududlar;

uchinchi guruh hududlari yashil hududlar bo‘lib, ta‘sir chegarasi 0,7 dan baland viloyat eksportiga ta‘sir darajasi yuqori bo‘lgan hududlar.

## 5-jadval

### Buxoro viloyati eksport hajmiga viloyat tuman va shaharlarining ta‘sirini baholovchi korrelyatsiya ko‘rsatkichlari<sup>11</sup>

Hududlar nomi	Buxoro viloyati	Buxoro sh.	Kogon sh.	Olot	Buxoro	Vobkent	G‘ijduvon	Kogon	Qorako‘l	Qorovulbozor	Peshku	Romitan	Jondor	Shofirkon
Buxoro viloyati	1.00													
Buxoro sh.	0.82	1.00												
Kogon sh.	0.53	0.16	1.00											
Olot	0.43	0.53	-0.16	1.00										
Buxoro	0.59	0.43	-0.04	0.78	1.00									
Vobkent	0.49	0.59	-0.51	0.35	0.56	1.00								
G‘ijduvon	0.71	0.87	-0.20	-0.24	-0.57	0.57	1.00							
Kogon	0.68	0.41	-0.24	-0.05	-0.05	0.19	0.08	1.00						
Qorako‘l	0.71	0.49	0.02	-0.22	-0.10	0.67	0.37	0.33	1.00					
Qorovulbozor	0.79	0.72	-0.30	-0.21	-0.27	0.85	0.13	0.32	0.78	1.00				
Peshku	0.36	0.03	0.61	0.30	-0.09	-0.15	0.88	-0.08	0.07	-0.19	1.00			
Romitan	0.71	0.66	0.30	0.09	-0.30	0.79	0.62	0.04	0.73	0.70	0.33	1.00		
Jondor	0.47	0.45	0.48	0.71	0.93	-0.50	-0.22	-0.07	-0.16	-0.29	-0.17	-0.30	1.00	
Shofirkon	0.40	0.06	0.39	0.25	-0.04	-0.16	0.76	0.03	-0.03	-0.15	0.88	0.23	-0.17	1.00

<sup>11</sup> Muallifning STATA 17.0 statistik amaliy dasturi asosida olgan tadqiqot natijalari.

Tadqiqotlarimiz natijalari asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Buxoro viloyati eksport hajmiga ta'sir qiluvchi yashil hududlar soni 5 ta bo'lib, ular Buxoro shahri (0,82), G'ijduvon (0,71), Qorako'l (0,71), Qorovulbozor (0,79) hamda Romitan (0,71) tumanlaridir.

Olib borgan ilmiy izlanishlarimizga ko'ra, viloyat eksportiga o'rtacha ta'sir ko'rsatuvchi hududlarni sariq hududlar sifatida qabul qildik. Bunga ko'ra Kogon shahri, Buxoro va Kogon tumanlari sariq hududlar toifasiga kirib, Buxoro viloyati eksportiga ta'sir darajasi 0,5 va 07 oralig'idagi hududlar sanaladi. Qolgan 5 ta hududlarning Buxoro viloyati eksport darajasiga ta'sir doirasi juda sust hududlar ekanligi aniqlandi. Tadqiqotlarimiz asosida bu hududlar qizil hududlar sifatida belgilandi.

Tadqiqotlarimiz asosida tuman va shaharlarning Buxoro viloyatiga birgalikda ta'sirini ifodalaydigan ko'p omilli regressiya tenglamasini tuzdik.

$$Y = 1,05 * x_1 + 0,96x_2 + 0,1 * x_3 + 0,92 * x_4 + 0,1 * x_5 + 1,2 * x_6 + 107,2 \quad (2)$$

Olib borgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, Olot, Vobkent, Peshku, Jondor hamda Shofirkon tumanlarining Buxoro viloyati eksportiga qo'shgan hissa boshqa hududlarga nisbatan juda past hamda noldan sezilarli farqqa ega emasligi aniqlandi.

Regressiya tenglamasi natijasidan xulosa qilishimiz mumkinki, Buxoro shahri, Kogon shahri, G'ijduvon, Romitan hamda Qorovulbozor tumanlarining Buxoro viloyati eksportiga ta'siri yuqoriligi empirik tadqiqotlarimiz natijasi orqali mustahkamlandi.

Bizning fikrimizcha, tashqi savdo statistikasida hudud tarkibini tahlil qilish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda eksport yoki importning tovar va xizmatlar guruhiga yoki hududlarga nisbatan konsentratsiyasini hisoblaydigan Herfindal koeffitsiyentidan foydalanishimiz mumkin. Konsentratsiyaning umumiy ko'rsatkichini hisoblash formulasi (Herfindal koeffitsiyenti) 2,2 paragrafimizda keltirib o'tilgan. Ushbu ko'rsatkich orqali mamlakat hududlarining ma'lum tovarlar guruhi bo'yicha import yoki eksportda ixtisoslashuvi hisoblanishi mumkin.

Hisoblash metodologiyasiga ko'ra hududning ma'lum tovar yoki xizmatlar guruhi bo'yicha amalga oshirilgan eksport yoki importi hududning umumiy eksportdagi ulushi bilan mamlakat umumiy eksport yoki importida taqqoslanayotgan tovar va xizmatlar ulushiga taqqoslash orqali ixtisoslashuv indeksleri hisoblanishi mumkin. Ixtisoslashuv indeksleri % yoki koeffitsiyentlarda ifodalanishi mumkin, agar indeks 1 (agar %da bo'lsa 100)dan katta qiymatlarni ifodalasa hudud o'sha tovarga mamlakat miqyosida ixtisoslashgan hisoblanadi.

Ixtisoslashuv qiymatlarni oshib borishi ixtisoslashuv yuqori darajada ekanligini ifodalaydi. Bunda import tovarlaridagi yuqori ixtisoslashuv importga qaramlik darajasini ifodalaydigan ko'rsatkichlarni aniqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyatining 2020–2024-yillardagi eksport hamda import ko'rsatkichlari asosida tadqiq qilindi. Unga ko'ra viloyatning so'nggi yillardagi tashqi savdo ko'rsatkichlariga ko'ra viloyatning sanoat mahsulotlari eksportining ixtisoslashuv indeksi yuqori chiqqan bo'lib 107,2 %ni tashkil qiladi. Undan keyingi o'rinda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va

shunga o'xshash materiallarning ixtisoslashuv indeksi bo'lib 90,4 %lik qiymatni ifodalamoqda.

Eksportdagi qolgan tovarlarning ixtisoslashuvi nisbatan past ko'rsatkichlarni ko'rsatgan. Viloyat importida mashinalar va transport asbob-uskunalari hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallarning ixtisoslashuv indeksi juda yuqori ko'rsatkichlarni tashkil qilgan bo'lib, ko'rsatkichlar 250 %dan ortiqni ifodalagan, ushbu ko'rsatkich viloyatda ushbu guruhlarining tovarlariga talab juda yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

